

ALEKSANDR FAYNBERGNING HAYOT VA IJODIY FAOLIYATI XUSUSIDA

G'aniyeva Mehruza

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti**Tarjimonlik fakulteti magistratura 2- bosqich talabasi*

Kitobxonlar qalbida o'chmas iz qoldirgan, ikki millat kuychisi, jonkuyar, serqirra ijodi bilan o'zbek va rus adabiyotining boyishiga ulkan hissa qo'shgan, hassos shoir Aleksandr Faynberg 1939-yil 2-noyabrda Toshkent shahrida tavallud topgan. Shoirning bolaligi Sobiq Jukovskiy ko'chalarida o'tgan. Maktabni tamomlagach, Aleksandr Faynberg Toshkent topografik texnikumiga o'qishga kiradi. Texnikumni tamomlab, harbiy xizmatga, Tojikistonga yo'l oladi. Shoirlikka bo'lgan muhabbati uni Toshkent davlat universiteti sirtqi filologiya fakultetining jurnalistika bo'limi tomon yetaklaydi. Bir necha yillar davomida, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi lavozimida faoliyatini davom ettiradi.

Shoirning ijod mahsuli 15 ta she'riy kitoblar, 20 dan ziyod multfilmlar va nasriy asarlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, serqirra ijodkorning senariylari asosida to'rtta uzun metrajli badiiy filmlar suratga olingan. O'ndan ortiq she'riy to'plamlari Toshkent, Moskva va Sankt-Peterburg shaharlarida nashr etilgan. Aleksandr Faynberg - betakror tarjimon. U orqali Alisher Navoiyning dostonlari va she'rlari rus adabiyotiga kirib keldi. Uning she'rlari "Yoshlik", "Yangi dunyo", "Sharq yulduzi", "Yangi to'lqin" jurnallarida va AQSH, Kanada va Isroil kabi xorijiy davlatlarning matbuotida chop etilgan. She'riy to'plamlari: "She'rlar", "Olis ko'priklar", "Qisqa to'lqin", "Ijobat", "Yoyma to'r", "Erkin sonetlar".

Faynberg nafaqat nazmda qolaversa nasrda ham salmoqli ijod qilgan. Uning qalamiga mansub badiiy filmlar suratga olingan: "Eng ko'm ko'k osmon ustida" (Moviy osmon ostida), "Jazirama oftob tagidagi uy", "Qandahorda toblanganlar" va boshqalar. Rus millatining kitobxonlari hayotiga Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni va Abdulla Oripov, Hosiyat Rustamova, Omon Matjon va Sirojiddin Saidning she'rlari jamlangan "Oqqushlar galasi" nomli to'plami Aleksandr Faynbergning ulkan hissasi orqali kirib keldi. Faynbergning ijodida asosan o'tmish va hozirgi kun, G'arb bilan Sharq hayoti izchil qalamga olingan. Shoirning she'rlarida o'ziga xos hajviya ufurib turganligi bilan ajralib turadi. "Ruboiy tori" dostonida o'zbek choyxonasining oshi shunaqa bir kulgu bilan tasvirlanganiki, har bir satrini tabassumsiz o'qishning imkoni yo'q. Sharq mumtoz she'riyat an'analari Faynberg ijodini chetlab o'tmagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Faynbergning o'zbek adabiyoti rivojiga qo'shgan munosib xizmatlari uchun O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov uni "O'zbekiston Respublikasi Xalq shoiri" unvoni bilan taqdirlagan. O'zbek xalqi Faynbergni qalbi o'zbek rus shoir deb bejiz aytmagan, chunki u tom ma'noda haqiqiy vatanparvar, o'zbekistonning farzandi edi. Quyidagi she'r fikrimizga dalil bo'la oladi: Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Faynberg o'zbek she'riyatining faol targ'ibotchisi, porloq yulduzlaridan biri edi:

Toshkent

Quvonch, qayg'u uchun, kimga shukur etay?

Qalbdagi uyimdan qaylarga ketay?

Nastarinlar to'la devorlar, uylar,

Onam chaqirganda xa, hozir, derdim,

Lek, ko'proq qushlarning g'amini yerdim.
Tomning tunukasi qizib ketardi,
Qo'lim go'yo undan ko'kka yetardi.
Falakka qo'nganda astagina shom,
Yulduzlar yog'dusi berganda orom,
Onam chaqirardi yana balkondan,
Kelyapman, onajon, derdim yolg'ondan.
Bog'lanib qolgandim tomimga yomon,
Qirqdan ham onamchun bolaydim hamon.
Abadiy bahorday barcha xushchaqchaq,
Hokisorlik onam kutardi ilhaq.
Rus tilidan Begoyim Xolbekova tarjimasi
Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Faynberg o'zbek she'riyatining faol targ'ibotchisi,
porloq yulduzlaridan biri edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B. Xolbekova "Ishq degani bir qarashda tuyular oson..." A. Faynbergdan tarjimalar kitobi - "Ijod nashr" 2021.
2. www.ma'lumot.ru